

## **TIL VA MADANIYAT MUNOSABATI. (ESSE)**

**Saidova Mahzuna**

Til har bir xalqning tarixiy xotirasi, madaniy tafakkuri va hayot tarzining soʻzdagi aksidir. U orqali jamiyatning qadriyatlari, urf-odatlari va dunyoqarashi shakllanadi hamda avloddan avlodga uzatiladi. Madaniyat esa til vositasida namoyon boʻladi, rivojlanadi va mustahkamlanadi. Til va madaniyat oʻzaro uygʻunlikda yashab, bir-birining mazmunini toʻldiradi. Xoʻsh, til madaniyatni shakllantiradimi yoki madaniyat tildan mazmun oladimi?

Til va madaniyat oʻrtasidagi munosabat ilk bor XX asr boshlarida antropologik tilshunoslik doirasida oʻrganila boshlagan. Edward Sapir va Benjamin Lee Whorf tomonidan ilgari surilgan “til nisbiyligi gipotezasi”ga koʻra, inson tafakkuri va dunyoqarashi aynan til orqali shakllanadi, bu esa uning madaniy ongini belgilaydi. Yaʼni har bir til — oʻziga xos dunyoqarash shaklidir. Oʻzbek tilida mavjud boʻlgan “or”, “gʻurur”, “mehmonnavozlik”, “halollik” kabi tushunchalar faqat leksik birlik emas, balki oʻzbek xalqining madaniy qadriyatlarini bildiruvchi semantik strukturalardir. Masalan, “Yurakdan chiqqan soʻz — yurakka yetadi” degan maqol nafaqat nutq madaniyatini, balki samimiylilik va madaniy muloqotga boʻlgan talabni ifodalaydi.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda til “madaniy xotira” ni saqlovchi vosita sifatida koʻriladi. Shu sababli til orqali xalq urf-odatlari, afsonalari, qadimiy qarashlari va ijtimoiy tajribasi avloddan avlodga oʻtadi. Xalq ogʻzaki ijodida, xususan maqol va matallarda bu madaniy tajriba jamlangan. Masalan, oʻzbek tilidagi “Mehmon otangdek ulugʻ” degan ibora oʻzbek madaniyatining mehmondoʻstlik qadriyatlarini koʻrsatadi. Bu kabi maqollar til orqali milliy mentalitetni mustahkamlaydi. Sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan esa, til nafaqat madaniyat mahsuli, balki uni ishlab chiqaruvchi vositadir. Holmes fikricha, madaniyatda mavjud ijtimoiy rollar va ierarxiyalar til orqali mustahkamlanadi — ayniqsa rasmiy va norasmiy muloqotlarda. Madaniy kodlar til orqali jamiyatga uzatiladi. Masalan, toʻy va marosim tilida ishlatiladigan “tobora baland boʻlsin”, “yaxshi niyatlar bilan” kabi iboralar ijtimoiy marosim madaniyatining tilga koʻchgan shaklidir.

Biroq soʻz boyligi qisqarib, jahon ommaviy madaniyatining jargonlari kirib kelar ekan, milliy tilga xos madaniy qatlamlar — maqollar, udumlar, xalqona iboralar asta-sekin yoʻqolib bormoqda. Bu esa madaniy xotiraning zaiflashuviga olib keladi. Bu esa til oʻzgarishi va madaniyatning yemirilishiga sabab boʻlmoqda. Reklama, kino va ijtimoiy tarmoqlarda xorijiy madaniyatlarga xos til birikmalarining keng qoʻllanishi yoshlar ongida oʻz madaniyatini inkor etish holatlarini kuchaytiradi. Bu esa sotsiolingvistik nomuvofiqlikni keltirib chiqarmoqda.

Mening fikrimcha, til millat yuragi, madaniyat esa shu yurakdan ozuqa oluvchi maʼnaviy tana kabidir. Oʻzbek tilining ohangdorligi, soʻz boyligi, rang-barang iboralari bizning qadimiy va boy madaniyatimizning ifodasidir. Har bir maqol, har bir xalqona ibora — bu tarix, bu milliy ruhdur. Shunday ekan, tilni oʻrganish — bu madaniyatni anglash, oʻzligimizni his qilishdir.

Xulosa qilib aytganda, til va madaniyat — bir-biridan ajralmas tushunchalar boʻlib, ular oʻzaro uygʻunlikda milliy ongni shakllantiradi. Til madaniyatni tashiydi, madaniyat esa tilga mazmun baxsh etadi. Ularning uzviy aloqasini anglash orqali nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, sotsiologiya va taʼlim sohalarida ham keng koʻlamli tadqiqotlar olib borish mumkin. Chunki tilni asrash — bu aslida madaniyatni asrashdir.

### **Til va axloq munosabati. (Esse)**

Til va axloq — bu faqat aloqa vositasi va axloqiy mezon emas, balki ular insoniyatning tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajribasini mujassamlashtiruvchi muhim fenomenlardir. Til orqali axloqiy qadriyatlar ifodalanadi, axloq esa tilning jamiyatdagi qoʻllanilishi va talqinini belgilab beradi. Ayniqsa, lingvokulturologiya va sotsiolingvistika sohaları bu bogʻliqlikni chuqur ilmiy asosda oʻrganishga imkon yaratadi. Xoʻsh, til va axloq bir-biriga qanday taʼsir koʻrsatadi? Ular oʻzaro qanday munosabatda boʻladi?

Til va axloq munosabatining ijobiy tomonlarini lingvokulturologik, sotsiolingvistik, kognitiv-nazariy asos jihatidan tahlil qiladigan boʻlsak, lingvokulturologik jihatdan: Oʻzbek xalq maqollari va iboralari axloqiy qadriyatlarning verbal shaklidir. Masalan, “Yaxshilik qil — dengizga ot, baliq bilmasa, Xoliq bilar” degan maqolda ezgulik gʻoyasi tilda mustahkamlangan. Bu madaniy kod orqali jamiyat axloqiy normalarni avloddan avlodga uzatadi. Sotsiolingvistik misol: Sizlash va senlashning oʻzi axloqiy ierarxiyani ifodalaydi. Holmes fikricha, til ijtimoiy rollarni

belgilaydi. Masalan, talabning o‘qituvchiga “Siz” deb murojaat qilishi, hurmat va e’tiborning lingvistik ko‘rinishidir. Kognitiv-nazariy asos jihatidan esa Sapir–Uorf gipotezasi asosida til tafakkurga ta’sir qiladi. Ya’ni, til orqali inson axloqiy me’yorlarni idrok qiladi. Bu esa tilda mavjud axloqiy birliklar (masalan, “or”, “nomus”, “halollik”) orqali ijtimoiy ong shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Til va axloq munosabatining salbiy jihatlari internet tili va axloqiy qadriyatlarning yemirilishi: Bugungi ijtimoiy tarmoqlardagi til muloqot madaniyatini buzmoqda. Ixtisoslashtirilmagan qisqartmalar, emoji-lar, tajovuzkor izohlar jamiyatda axloqiy muvozanatni susaytirmoqda.

Qolaversa, global til (ingliz tili)ning ta’siri lingvistik imperializm natijasida mahalliy tillar va ularning axloqiy boyligi so‘nmoqda. Masalan, inglizcha “sorry” yoki “hi” kabi iboralar o‘zbek tilidagi “uzr”, “assalomu alaykum” kabi axloqiy yukli shakllarni siqib chiqarmoqda.

Bundan tashqari, senzurasiz axborot oqimi kuchaymoqda. Medialingvistika sohasidagi tadqiqotlarga ko‘ra, yoshlar orasida senzurasiz kontent orqali buzuq tilda muloqot qilish, so‘kinish va kamsituvchi iboralar ommalashmoqda. Bu esa tilning axloqiy missiyasiga ziddir.

Mening fikrimcha, til — axloq oynasi, axloq esa tilning yuragidir. Bir xalqning axloqi qanday bo‘lsa, uning tilida ham o‘sha ifodalanadi. Yoshlarga ta’lim berishda, til vositasida axloqiy tarbiyani kuchaytirish zarur, deb bilaman. Chunki biz nutqimizda qanday so‘z ishlatsak, tafakkurimiz ham shunga mos shakllanadi. Zero, tilning tarovati yurakdagi axloq nurlaridan oziqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, til va axloq orasidagi munosabat — bu o‘zaro ta’sirchan, murakkab va chuqur ildiz otgan jarayondir. Lingvokulturologik yondashuv bu ikki hodisani madaniy kodlar orqali bog‘lasa, sotsiolingvistika ularni jamiyat ichidagi real muloqotlarda ochib beradi. Ijobiy jihatlar qatorida, zamonaviy kommunikatsiya vositalarining salbiy ta’sirini ham unutmaslik kerak. Demak, tilga e’tibor — bu axloqqa xizmatdir, axloqqa sadoqat esa tilning poklanishidir.

### **Muloqotning sotsiolingvistik jihatlari. (Esse)**

Muloqot – bu insonlar o‘rtasidagi oddiy axborot almashinuvidan ko‘ra, chuqur ijtimoiy jarayondir. Ayniqsa, til orqali ifodalanadigan muloqot tahlili sotsiolingvistika fanining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Inson muloqoti naqadar sotsial va madaniy qatlamlarga boy?

Sotsiolingvistika tildan jamiyat ichida qanday foydalanilishini o‘rganadi. Til – bu ijtimoiy vosita, u insonning kimligini, qaysi guruhga mansubligini, hatto dunyoqarashini belgilashi mumkin. Dell Xayms bu borada shunday degan: “Insonning tildagi muvaffaqiyati – grammatik to‘g‘rilikda emas, balki muloqot kontekstini to‘g‘ri anglash va unga mos harakat qilishidadir”. Misol tariqasida, o‘zbek tilida hurmat shakllari keng qo‘llanadi: “Siz”, “Janoblari”, “Ustoz”, “Domla” kabi murojaatlar ijtimoiy mavqega nisbatan hurmatni bildiradi. Til bu yerda nafaqat axborotni yetkazish, balki munosabat bildirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, muloqotda yoshlar va keksalar orasidagi til uslubi farqlari ko‘zga tashlanadi. Masalan, talaba yoshlar orasidagi “mazza qildik”, “tema bo‘ldi”, “gap yo‘q” kabi norasmiy iboralar yoshi kattalar orasida qo‘llanilmaydi. Bu til shakllari guruh identifikatsiyasi uchun xizmat qiladi.

Jins va til o‘rtasidagi bog‘liqlik ham sotsiolingvistik muhim masalalardan biridir. Tilshunos Robin Lakoff ayollar tilida muloyimlik, ehtiyotkorlik va hissiy ifoda ko‘p ekanini ta’kidlab, buni jamiyatda ayollarga yuklangan rollar bilan bog‘laydi. Masalan, ayollar ko‘proq “balki”, “nazarimda”, “to‘g‘risi” kabi yumshoq shakllardan foydalanadi.

Biroq migratsiya, urbanizatsiya, internet tili kabi omillar tilda kode-almashuv (code-switching) holatlarini keltirib chiqaradi. Masalan, “Assignment’ni ertaga topshiramiz” kabi aralash gaplar Toshkent sharoitida keng tarqalgan. Bu til o‘zgaruvchanligini, leksik qatlamning doimiy yangilanishini ko‘rsatadi. Kod-almashuv (code-switching) – ikki til yoki sheva orasida almashish holati ham sotsiolingvistik jarayonning bir ko‘rinishi. Ayniqsa, ko‘p tilli jamiyatlarda, masalan Toshkentda: “Domla, bu assignment’ni qachongacha topshiramiz?” kabi jumlar keng tarqalgan. Bu holat odamning ijtimoiy holati, til kompetensiyasi va atrofdagilarga moslashishiga bog‘liq.

Shuningdek, til va jamiyat o‘zaro munosabatida sotsiolingvistik tafovutlar ham mavjud. Unda jins, yosh va madaniyatga qarab tilning o‘zgarish holatlari kuzatiladi. Sotsiolingvistika tilning jinsga bog‘liq jihatlarini ham o‘rganadi.

Robin Lakoff ayollar nutqida yumshoqlik, noaniqlik va hissiy ifodaning ustuvorligini qayd etgan: “Ayollar ko‘proq “nazarimda”, “balki”, “bilmaymanu” kabi iboralarni ishlatadi. Bu ularning jamiyatdagi rovidan kelib chiqadi”. Bu holat muloqotda faqat til emas, balki jamiyatdagi gender rollari, stereotiplari ham ishtirok etishini

anglatadi. Shuningdek, keksalar bilan muloqotda qadriyat, hurmat, an’anaviy shakllar ustuvor bo‘lsa, yoshlar zamonaviy, tezkor, qisqartma ifodalarni afzal ko‘rishadi.

Milliy madaniyat ham muloqotga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Sharqona odob-axloq, muomala madaniyati asosida “ijozat so‘rash”, “hurmat bilan so‘zlashish” kabi qadriyatlar o‘zbek tilida mustahkam ildiz otgan. Bu madaniy kodlar muloqot mazmunini yanada chuqurlashtiradi.

Shaxsiy fikrimcha, muloqotni faqat “gaplashish” deb qabul qilish juda soddalik bo‘ladi. Har bir so‘zimiz ortida yashirin ijtimoiy ma’lumotlar, munosabatlar, hatto qarashlarimiz ham yashiringan bo‘lishi mumkin. Men o‘zim har doim muomalada kimga qanday murojaat qilishim kerakligini o‘ylab olaman – bu, aslida, o‘sha insonni qanday qabul qilishimga bog‘liq. Muloqotdagi bunday nozik farqlarning anglanishi jamiyatdagi o‘zaro hurmat, madaniyat va birlikni mustahkamlaydi, deb hisoblayman.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, muloqot – bu insonlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi bilan birga, ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatlarni o‘zida mujassam etgan murakkab jarayondir. Til orqali nafaqat fikr bildiramiz, balki jamiyatdagi o‘rnimizni belgilaymiz, boshqalarga munosabatimizni namoyon qilamiz. Muloqotda sotsiologik tafovutlarni anglash esa, bizga ko‘proq empatiya, hurmat va ijtimoiy moslashuvni o‘rgatadi. Shunday ekan, muloqotga oddiy bir jarayon sifatida emas, balki jamiyatni anglash kaliti sifatida qarashimiz zarur.

### **Murojaatning sotsiologik xususiyatlari. (Esse)**

Til jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning asosiy vositasi bo‘lib, murojaat shakllari bu munosabatlarning sotsiologik ko‘zguvidir. Har bir til jamoasida murojaat vositalari ijtimoiy qatlam, yosh, jins va muloqot vaziyatiga qarab shakllanadi. Muloqotda tanlangan murojaat shakli nafaqat hurmat yoki yaqinlik darajasini, balki nutq egasining til madaniyatini ham namoyon etadi. Shuningdek, hududiy va madaniy farqlar murojaatlarda sezilarli tilda aks etadi. Murojaat vositalari orqali jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar qanday tarzda tilga ko‘chadi?

Til — ijtimoiy hodisa. Shu bois tilshunoslikning sotsiologik kabi yo‘nalishi tilning jamiyatdagi funksiyalari, ijtimoiy qatlamlar, yosh, jins, kasb va boshqa omillar asosida qanday o‘zgarishini o‘rganadi. Murojaat shakllari ham aynan shu sotsiologik omillarning yaqqol namunasidir.

Murojaat — bu suhbat jarayonida muloqot ishtirokchilarining bir-birlariga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi til birliklaridir. Har bir til jamoasida murojaatning

o‘ziga xos shakllari mavjud bo‘lib, ular ijtimoiy vaziyatga bog‘liq holda tanlanadi. Masalan, o‘zbek tilida “siz” shaklidagi murojaat hurmat ifodasi bo‘lsa, “sen” shakli ko‘proq yaqinlik yoki norasmiylikni bildiradi. Bu holat sotsiolingvistik tengsizlik yoki ijtimoiy masofaning ifodasi sifatida izohlanadi.

Sotsiolingvistik tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, murojaat shakllari ijtimoiy rollar (ota-ona, ustoz, rahbar), yosh farqi, rasmiy va norasmiy muhit, hududiy dialektlar, shuningdek, nutq etikasiga doir qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Misol uchun, O‘zbekiston hududida “aka”, “opa”, “do‘st”, “domla”, “ustoz”, “hov” kabi ko‘plab murojaat shakllari mavjud bo‘lib, ularning qo‘llanishi muloqotchilarning ijtimoiy pozitsiyasiga va o‘zaro munosabat darajasiga bog‘liq.

Murojaat birliklari orqali nutq egasining madaniy darajasi, til odobi, hatto psixologik holati ham anglashiladi. Bu esa sotsiolingvistikaning yana bir asosiy masalasi — til va shaxsiyat o‘zaro munosabatini yoritishga xizmat qiladi. Xususan, tilshunos A.A. Reformatskiy murojaat vositalarini tilning kommunikativ funksiyasi doirasida o‘rganib, ularni pragmatik birlik sifatida belgilagan.

Zamonaviy sotsiolingvistikada esa gender tilshunosligi yo‘nalishi murojaatlarning erkaklar va ayollar nutqidagi farqlarini ham tahlil qiladi. Ayollar nutqida ko‘proq muloyim, yumshoq shakldagi murojaatlar (“jonim”, “azizam”, “opa”, “muhtaram”) uchrasa, erkaklar orasida esa ba’zida bevosita yoki ijtimoiy roldan kelib chiqqan shakllar (“aka”, “aka-oka”, “ustoz”) ustunlik qiladi.

Mening fikrimcha, til jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning asosiy vositasi bo‘lib, murojaat shakllari bu munosabatlarning sotsiolingvistik ko‘zgusi hisoblanadi. Har bir til jamoasida murojaat vositalari ijtimoiy qatlam, yosh, jins va muloqot vaziyatiga qarab shakllanadi. Muloqotda tanlangan murojaat shakli nafaqat hurmat yoki yaqinlik darajasini, balki nutq egasining til madaniyatini ham namoyon etadi. Shuningdek, hududiy va madaniy farqlar murojaatlarda sezilarli tilda aks etadi. Murojaat vositalarini to‘g‘ri va o‘rinli ishlatish insonning tarbiyasi va jamiyatdagi o‘rnini ham belgilaydi. Masalan, men birinchi marta institutdagi o‘qituvchiga “ustoz” deb murojaat qilganimda, u kishining menga bo‘lgan munosabati yanada iliqlashganini sezganman. Bu oddiy bir so‘z, ammo uning orqasida ehtirom, minnatdorlik va hurmat mujassam edi. Shunday ekan, murojaat shakllari jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlar va madaniyatni ifodalovchi muhim til birliklaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, murojaatning sotsiolingvistik xususiyatlarini o‘rganish orqali biz tilning ijtimoiy jihatdan qanday ishlashini, jamiyat a‘zolarining bir-birlariga

bo‘lgan munosabatini, hatto muloqot madaniyatini chuqurroq anglash imkoniga ega bo‘lamiz. Bu esa sotsiologiyatning asosiy masalalaridan biri — til va jamiyat o‘rtasidagi uzviy aloqani ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi. Shunday qilib, murojaat shakllari til va ijtimoiy munosabatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiradi. Har bir murojaat, shaxsning nutq madaniyatini, jamiyatdagi o‘rnini va muloqotdagi rolini ko‘rsatadi. Murojaat vositalari nafaqat ijtimoiy pozitsiyalarni ifodalovchi vosita, balki insonlar o‘rtasidagi hurmat va ehtiromni ham ta’minlaydi. Ular orqali biz jamiyatdagi o‘zgarishlarni va ijtimoiy aloqalarni ham tushunishimiz mumkin. Murojaatlarning to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llanishi har bir insonning tarbiyasi, madaniyati va do‘stona munosabatlarida muhim rol o‘ynaydi. Murojaat vositalarini tilda to‘g‘ri ishlatish – jamiyatdagi odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni boyitish va ijtimoiy do‘stlikni mustahkamlashning zaruriy sharti hisoblanadi.



**Research Science and  
Innovation House**